

YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021-yilning yanvar–sentabrda Qashqadaryo viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 31 705,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020-yilning yanvar-sentabri bilan taqqoslaganda 8,4 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2020-yilning yanvar-sentabridagi narxlarga nisbatan 114,4 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Qashqadaryo viloyatining qo'shgan hissasi 6,1 % ga yetdi.




2020-2021- yillarning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

		Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2020- yil	2021- yil	
	I. YAHM	25 564,2	31 705,2	108,4
	<i>shu jumladan:</i>			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	24 667,5	30 383,6	108,4
	Mahsulotlarga sof soliqlar	896,7	1 321,6	109,3
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	24 667,5	30 383,6	108,4
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	10 365,2	12 433,0	103,1
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	5 655,1	7 576,4	119,3
	sanoat	4 103,6	5 558,9	119,0

		Mlrd. so‘m		O‘shish sur‘atlari, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2020- yil	2021- yil	
	qurilish	1 551,5	2 017,5	120,2
	Xizmatlar	8 647,2	10 374,2	107,6
	savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	1 578,2	1 952,2	110,3
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 180,9	1 541,4	119,7
	boshqa xizmat tarmoqlari	5 888,1	6 880,6	104,5

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 9 430,2 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 6,4 % ga yuqoridir.




Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 95,8 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 4,2 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 40,9 % ni, sanoat tarmog'i 18,3 % ni, qurilish 6,6 % ni va xizmatlar sohasi 34,2 % ni tashkil qildi.




2020-2021- yillarning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

		2020- yil	2021- yil
	I. YAHM, jami	100,0	100,0
	<i>shu jumladan:</i>		
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	96,5	95,8
	Mahsulotlarga sof soliqlar	3,5	4,2
	II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	42,0	40,9
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	22,9	24,9
	sanoat	16,6	18,3
	qurilish	6,3	6,6
	Xizmatlar	35,1	34,2
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6,4	6,4
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	4,8	5,1
	boshqa xizmat tarmoqlari	23,9	22,7




**2020-2021- yillarning yanvar-sentabr oylarida
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)**

2020- yil





2021- yil



YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 103,1 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 40,9 %), sanoatda – 119,0 % (18,3 %), qurilishda – 120,2 % (6,6 %), xizmatlar sohasida – 107,6 % ni (34,2 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 110,3 % (6,4 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 119,7 % (5,1 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 104,5 % dan (22,7 %) iborat bo'ldi.



2020-2021- yillarning yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,3 f.p. (2020- yilning yanvar-sentabrda – 1,1 f.p.), sanoat tarmog'i – 3,1 f.p. (2020- yilning yanvar-sentabrda – 0,8 f.p.) va qurilish tarmog'i – 1,2 f.p. (2020- yilning yanvar-sentabrda salbiy – 0,2 f.p.), xizmat ko'rsatish sohasi – 2,5 f.p. (2020- yilning yanvar-sentabrda – 0,6 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,3 f.p. (2020- yilning yanvar-sentabrda – 0,1 f.p.) ga ko'paydi.




2021- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jami nisbatan % da)



2021- yilning yanvar-sentabrida YAHM deflyatori indeksi 2020- yilning yanvar-sentabridagi narxlarga nisbatan 114,4 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ida – 116,4 %, sanoatda – 113,8 % va xizmatlarda – 111,5 % qayd etildi.



2020-2021- yillarning yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2020-2021- yillarning yanvar-sentabr oylarida YAHMda kichik biznesning ulushi (YAQQga nisbatan %da)



2021- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 68,6 % ni tashkil qildi. (2020- yilning yanvar-sentabrida – 71,2 %).

YAHMning o'tgan yilning mos davriga nisbatan kamayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan izohlanadi.